

BESH MUHIM TASHABBUS-BUYUK KELAJAK POYDEVORI**Xalilova Maxfuza Maxamadjonovna**

Chirchiq Davlat pedagogika instituti o`qituvchisi

Xudoyazarova Odinaxon Abdullayevna

Ohangaron shahar 1-UO`TM Musiqa madaniyati fani o`qituvchisi

Isoqova Guljahon Abrorjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola xalqimiz yaratgan qadriyatlarning noyob usuli hisoblangan musiqa har sohada mavjudligi yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy tarbiyasi, bugungi kunda musiqa mashg`ulotlarini ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirish, zamon talabiga mos ravishda olib borish va boshqa faoliyat ko`rsatayotgan musiqa rahbarining oldiga qo`yilgan eng dolzarb vazifalari va musiqa san`ati nafosat tarbiyasining muhim omili ekanligi haqida yoritilgan.

Kalit so`zlar: Musiqa, tashabbus, iste`dod, rassomlik, san`at, madaniyat, ritm, nazariy, cholg`u, navo, tovush, alteratsiya, ohang, soz, musiqiy parda.

Beshta muhim tashabbus: – Yoshlarni musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san`atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste`dodlarini ro`yobga chiqarish, ularni jismoniy chiniqtirish, sport sohasida qobiliyatlarini namoyon qilishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, aholi va yoshlar o`rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish, shuningdek yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish hamda xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash bo`yicha tizimli ishlarni tashkil etish.

Muhtaram Prezidentimizning ushbu tashabbuslari ta`lim tizimiga qaratilgan yana bir e`tibori deb o`ylayman. Biz talabalar, 5ta muhim tashabbusni zo`r qiziqish va mamnuniyat bilan qabul qildik. Prezidentimiz oxirgi paytlarda yoshlar ma`naviyatini yuksaltirishga katta e`tibor qaratayotganligi barchamizni birdek quvontirmoqda. Tashabbusning har biriga nazar solsak, uning tub zamirida yoshlarni ma`naviyatini yuksaltirish, ularga keng imkoniyatlar yaratish kabi muhim masalalarni qamrab olgan. O`ylaymanki, yurtboshimizni tashabbuslari faoliyatimizning asosiy mezonlariga aylanadi.

Ma`lumki, davlat rahbarimiz ijtimoiy, ma`naviy-marifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo`lga qo`yish bo`yicha 5ta muhim tashabbusni ilgari surgan edilar.

1-tashabbus. Yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san`atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste`dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

2- tashabbus. Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo`naltirilgan.

3- tashabbus .Aholi va yoshlar o`rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.

4- tashabbus. Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish bo`yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo`naltirilgan.

5- tashabbus. Xotin-qizlarni ish bilan ta`minlash masalalarini nazarda tutadi.

Xalqimiz yaratgan qadriyatlarning noyob usuli hisoblangan musiqa har sohada, chunonchi, ta`lim tarbiya, mehnat va ijtimoiy munosabatda ma`lum darajada o`z ifodasini topgan. Murg`ak go`dakdan tortib to nuroniy qariyalargacha musiqa navolaridan bahramand bo`lib, ertangi kunning yanada porloq bo`lishi uchun kurashadi. Musiqa ongli faoliyat, samarali mehnat, samimiy munosabat uchun muhim tarbiya vositasidir. Musiqa san`ati nafosat tarbiyasining muhim omili bo`lib yosh avlodni kamolotga yetishi uchun eng tez tasir etuvchi vosita hisoblanadi.

O`rta asrlardayoq Sharqning buyuk mutafakkirlari musiqiy psixologiyani, musiqani qalbga, kayfiyatga va inson organizmiga ta`siri masalalarini o`rganishgan. Forobiyning „Musiqa haqida katta kitob“ asari, Ibn

Sinoning, „Kitob ash-shifo”, „Kitob an-janot”, „Donishnoma” kabi asarlarining musiqa haqidagi bo‘limlari, Abdurahmon Jomiyning „Risoi musiqa” kitobi va boshqa shu kabi ilmiy asarlar musiqaning inson ongiga qanday ta’sir etishini o‘rganishga bag‘ishlangan. Masalan, Aflotun: „Davlatning qudrati unda qanday musiqa, qaysi lad va qay ritmda yangrayotganligiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq”, -deb yozgan.

O‘zbekistonda madaniyat va san‘at sohasini rivojlantirish, jahon miqyosidagi ilg‘or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san‘at muassasalari barpo etish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalariga davlatimiz tomonidan ahamiyat qaratib kelinmoqda. O‘zbek milliy raqs san‘atini yanada rivojlantirish, ma‘daniyat va san‘at rivojiga katta hissa qo‘shgan taniqli san‘atkorlar, jahon miqyosidagi nufuzli ko‘rik-tanlovlarda yuqori o‘rinlarni egallagan yoshlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekistonning yuksak ma‘daniyati va san‘atini xalqaro maydonda yanada keng targ‘ib etish, xalqaro ko‘rik-tanlov va festivallarda mamlakatimiz vakillarining ishtirokini kuchaytirish, Samarqand shahrida o‘tkaziladigan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali nufuzini yanada oshirish, boshqa turli tadbirlarda chet ellik madaniyat va san‘at namoyandalari keng qatnashishlarini ta‘minlash, xalqaro ilmiy amaliy anjumanlar tashkil etish, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va ulardan samarali foydalanish lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, ushbu 5 tashabbus xalq, ayniqsa, yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Bugungi kunda mamlakatdagi 800 dan ortiq madaniyat markazlari, 312 ta musiqa va san‘at maktablariga atigi 130 ming nafar o‘g‘il-qiz qamrab olingani, mazkur muassasalarning aksariyati o‘quv qo‘llanmalari, notalar to‘plami, musiqa asboblari, mebel va jihozlar bilan yetarli darajada ta‘minlanmagani ko‘rsatib o‘tildi. Madaniyat vazirligi va Xalq ta‘limi vazirligiga hokimliklar bilan birgalikda tuman (shahar) madaniyat markazlari va umumta‘lim maktablarida yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqib, qo‘shimcha 1,5 mingta to‘garak tashkil etish vazifasi qo‘yildi. Tashabbuskor iste‘dodli yoshlar va mahalliy homiylarni jalb etgan holda, madaniyat markazlarida badiiy-havaskorlik jamoalari, yoshlar teatr-studiyalari va “Yoshlar klublari” tashkil qilish zarurligi ta‘kidlandi. Atoqli san‘atkor va iste‘dodli ijodkorlarni tumanlardagi madaniy ishlarga ko‘makchi sifatida biriktirish yaxshi mas‘ul bo‘ladi, tuman va shaharlar hokimlari esa ushbu ishlarga moddiy va tashkiliy jihatdan yordam natija berayotganini inobatga olib, bu tajribani butun mamlakatga yoyish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi. Unga muvofiq, taniqli artistlar tuman va shaharlarga ijodiy maslahatchi sifatida biriktirilib, o‘sha joylarda madaniyat va san‘atni rivojlantirishga beradi. Musiqa va san‘at sohasida oliy ma‘lumotli kadrlarni ko‘paytirish masalasiga ham e‘tibor qaratildi.

Mamlakat aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta‘lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma‘naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy tarbiyasi. Bugungi kunda musiqa mashg‘ulotlarini ilmiy metodik jihatdan har tomonlama takomillashtirib, zamon talabiga mos ravishda olib borish maktabgacha ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan musiqa rahbarining oldiga qo‘yilgan eng dolzarb vazifalardan biridir. Musiqa san‘ati nafas tarbiyasining muhim omili bo‘lib, u yosh avlodning kamolotga yetishishi uchun kuchli ta‘sir etuvchi jarayon hisoblanadi. Maktabgacha ta‘lim muassasalaridagi musiqa rahbari tomonidan musiqa mashg‘ulotlarida olib boriladigan musiqa ta‘lim tarbiyasi asosiy o‘rinni egallaydi.

Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida musiqa tarbiyasi. Musiqa ma‘daniyati darsining asosiy maqsadi o‘quvchilarga musiqa san‘atining go‘zallik qonunlari asosida o‘rganish, malakasini singdirish va ularda musiqa ma‘daniyatini tarkib toptirishdan iborat. Ushbu maqsad o‘quvchilardan musiqaviy-badiiy did, axloqiy estetik his tuyg‘ularni tarkib toptirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, ularda musiqa san‘atiga nisbatan qiziqish uyg‘otish kabi qator vazifalarni o‘z ichiga oladi. Buni amalga oshirishda sinf rahbari, ota-onalar musiqa o‘qituvchisiga yordam berishlari lozim. Maktablarda besh tashabbus doirasida turli tadbirlar tashkil etilmoqda. O‘quvchilar bilan birgalikda o‘qituvchilar ham „Sehrli soz”, „Men qo‘shiq kuylayman”, „Raqlar jilosi” kabi tadbirlarda o‘z san‘atlarini namoyish qilib kelishmoqda, ularning yangi qirralari ochilmoqda. Bolalarda musiqaga mehr va havas uyg‘otish, maktab o‘quvchilarining musiqiy saviyasini oshirish uchun musiqa o‘qituvchisidan katta mahorat talab etadi. Lekin og‘riqli nuqtalarimiz ham bor. Ayrim

maktablarda darslar musiqa o`qituvchisiga berilmaydi, sinf rahbarlari o`zlari o`tadi. Joylarda musiqa o`qituvchilari yetishmaydi. O`ylayman-ki bunday muammolar o`z yechimini topadi.

O`zbekistondagi barcha oliy ta`lim muassalarida 5tashabbus bo`yicha markazlar tuzildi va o`z faoliyatini yo`lga qo`ydi. Men ta`lim olayotgan Chirchiq Davlat Pedagogika institutida ham ko`pgina ishlar yo`lga qo`yildi. 5tashabbusning 1-yo`nalishi bo`yicha professor o`qituvchilar o`rtasida „Olimlar kuylaganda“, san`atkorlar, shoirlar, san`at arboblari bilan uchrashuvlar, mushoiralar badiiy kechalar tashkil etildi. Ma`daniyat masknalariga, san`at saroylariga, uy muzeylarga tashriflar uyushtirildi, „Yagonasan, muqaddas Vatan“ kabi ko`rik tanlovlar tashkil etildi. Bu faoliyatlarni uyushtirishda rahbarlarning va musiqa yo`nalishi ustozlarining mehnati beqiyos.

Yaqin yillardan buyon butun dunyo sinovli kunlarni boshidan kechirmoqda. Bularning barchasini yangi imkoniyatlar bilan amalga oshirmoqdamiz. Hozirgi kunda yurtimizda offline va onlayn tarzda tashabbuslar ijrosi davom etmoqda. Beshta muhim tashabbus bu – yoshlar kelajagi!

Adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M- Prezident nutqlari.
2. Panjiyev Q.B, Karimova D.A- Musiqa ma`daniyati fani o`qituvchilari uchun.
3. Panjiyev Q.B.- Umumta`lim maktablarida musiqa darslarini o`qitishning sifat va samaradorligini oshirish masalalari.
4. Ijtimoiy axborot ta`lim portal: www.ziyonet.uz
5. Maktablar o`quvchi va o`qituvchilar sayti: www.edunet.uz
6. O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi vazirligi: www.uzedu.uz
7. Ma`rifat gazetasi
8. TvCHDPI. www.cspi.uz 5tashabbus-rejasi
9. Yoshlar ittifoqi. [uz-yoshlar ma`naviyatini yuksaltirishda 5ta muhim tashabbus](http://uz-yoshlar.ma`naviyatini.yuksaltirishda.5ta.muhim.tashabbus).
10. Konservatoriya. [uz-5ta muhim tashabbus bu-yoshlar kelajagi](http://uz-5ta.muhim.tashabbus.bu-yoshlar.kelajagi).